



**Илмий – амалий конференция  
материаллари**

# **ИЛМ - ФАН ВА ИННОВАЦИЯ**

**Қ а р ш и**



tizimlashtirishga imkon beradi.

Soʻzli metodlardan (oʻqituvchi va bolalarning hikoyalari, tabiat haqidagi badiiy asarlarni oʻqish, suhbatlar) bolalarda tabiat haqidagi bilimlarni kengaytirish, ularni tizimlashtirish va umumlashtirish uchun foydalaniladi, ular bolalarda tabiatga nisbatan emotsional ijobiy munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Tabiatni oʻrganishda yetakchi metodlardan bittasi – amaliy metodlardir. Taʼlimning amaliy metodlari – oʻquvchilar oʻz bilimlarini oʻzlashtirish jarayonlarining turli faoliyatlarida tatbiq etish bilan tavsiflanadi. Bu reja ishlab chiqish, obyekt bilan tanishish, topshiriqni anglash va uni bajarishdagi amaliy ish, natijalarni rasmiylashtirish, bajarilgan ish yuzasidan xulosa chiqarish va shu kabilar. Tabiatshunoslikni oʻrganishda amaliy metodlardan keng foydalaniladi, shu sababdan tabiatdagi predmet, obyekt va hodisalar yaxshi oʻzlashtiriladi.

Amaliy metodlar soʻzli va koʻrgazmali metodlar bilan chambarchas bogʻlangan (oʻqituvchi tomonidan amalga oshirilgan ishning koʻrsatilishi va tushuntirib berilishi). Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda turli metodlardan majmuaviy foydalanish, ularni bir-biri bilan toʻgʻri uygʻunlashtirish lozim.

Qandaydir amaliy topshiriqni bajarishda oʻqituvchi oʻquvchilar oldiga vazifani qoʻyadi hamda uning bajarilish tartibini ochib beradi. Bu yerda shu narsa muhimki, topshiriq muammoli qilib tashlanishi kerak. Topshiriqni yechish jarayonida oʻquvchi undagi barcha bilim zaxirasidan foydalanishi, amaliy va tafakkur faoliyatini ishga qoʻshishi zarur. Amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni oʻzlashtirish oʻquv jarayonini faollashtiradi, oʻquvchilarda mustaqil fikr va ijodiylikni rivojlantiradi. Maktabda ishlash tajribasi shuni koʻrsatadiki, oʻquvchilar tomonidan faol faoliyat jarayonida orttirilgan bilim, nafaqat oson va ongli oʻzlashtiriladi, balki juda mustahkam ham boʻladi.

Faol amaliy va tafakkur faoliyati jarayonida yangi bilimlarni oʻzlashtirish zarur boʻlganda taʼlimning amaliy metodlaridan foydalaniladi. Taʼlim jarayonida amaliy metodlarni tatbiq etish nafaqat yangi bilimlarni oʻzlashtirishga imkon beradi, balki yangi holatlarda ularni oʻzlashtirish va tatbiq qilish uchun amaliy koʻnikmalarni shakllantiradi.

Amaliy metodlarga kuzatish, laboratoriya tajribalarini oʻtkazish, obyektlarni aniqlash borasidagi ishlar, tabiatshunoslik asboblari bilan ishlash, oʻquv-tajriba hududidagi tabiat burchagida amaliy ishlarni olib borishlar kiradi.

Shunday qilib, tabiatni oʻrganishda yetakchi metodlardan biri – amaliy metodlar ekan. Kuzatish va tajriba asosiy metodlar boʻlib, bu ikkala metod didaktika nuqtayi nazaridan ular bir-biriga juda yaqin, chunki tajriba va kuzatishlar natijasida oʻquvchilarda kuzatuvchanlik rivojlanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Bahromov A., SH. SHaripov., Nabiyeva M.Tabiatshunoslik. 4-sinf uchun.-T.: 2017.-118 b.
2. Bahromov A., SH. SHaripov., Nabiyeva M.Tabiatshunoslik. 3-sinf uchun darslik "Choʻlpon" nashriyoti.-T.: 2016
3. Mamadinova N., Ahmedova M. Atrofimizdagi olam. 1-sinf uchun darslik. "Oʻqituvchi" nashriyoti. T.: - 2018.

### ШАХСНИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШ – ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА

*Магистрант Раилбердиев Асқаржон  
Илмий раҳбар: доц. Нуруллаева Ш.*

Юртимизда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар самараси жамият аъзоларининг фаоллиги, масъули-лигига ва энг асосийси ularning интеллектуал камолотига боғлиқдир. Зеро, давлат сиёсатида устувор соҳа деб белгилан-ган таълим соҳасидаги ислохотлар ҳам айнан ёшларнинг интеллектуал жиҳатдан ривожлантириш ҳамда иқтидорли-ликни рағбатлантиришга қаратилгандир.

Жамият аъзоларининг интеллектуал жиҳатдан ривож-ланиши узок давр мобайнида амалга ошадиган жараён бўлиб, унинг асосини у яшаб турган ижтимоий муҳит ва тарбия белгилайди.

Муҳит – бу инсоннинг ўраб турган муҳит - теварак-атроф, кишилар, оила, маҳалла, меҳнат фаолиятини юритиш-даги жамоа ва шу кабилар.



**Тарбия** эса шахсни жамият талаблари асосида маънавий, ахлоқий, жисмоний ва умуман ҳар томонлама камол топтириш жараёнидир.

Шахс ақлий ривожланиши уни табиат ва жамиятдаги ҳодиса ва жараёнлар кечишини ўрганишга, уларни имкон бўлганда бошқаришга бўлган қизиқиш ва интилишга ундайди ва бундай эҳтиёжларини қондиришга ёрдам беради.

**Ақл** – инсон миъясининг дунёни ақс эттириш ва шахснинг воқеликка бўлган муносабатларини бошқариб турадиган фаолияти.

**Онг** – кишининг фикрлаш қобилияти ёки инсоннинг ижтимоий ҳаётни тушуниши, сезиши ва унга бўлган шахсий муносабати, яъни тафаккур маркази бўлиб унда фикр ва маълумотлар жамланади ва у қалбдаги эътиқод асосида дунёқарашни шакллантиради.

Демак, онгли инсон пайдо бўлибдики, фикр, ғоя, қараш, мафкура, таълимотлар шаклланиб, улар асосида илм, фан, техника, технология, таълим, тарбия тадрижий (эволюцион) тарзда ривожланиб келмоқда ва такомиллашиб бораверади.

Шахс тарбияси, уни интеллектуал ривожлантириш муаммоси ҳар доим ҳам долзарб муаммо сифатида ўрганилиб келинмоқда. Жумладан, шарқ мутафаккирлари бўлмиш аждодларимиздан Абу Наср Фаробий, Алишер Навоий, Имом ал-Бухорий, Юсуф Хос Ҳожиб асарларида ҳам хозирги кунгача ўз аҳамиятини йўқотмаган қарашлар мвжуддир.

Абу Наср Фаробийнинг «**Фозил одамлар шахри**» асари бутунги ёшларимиз тарбиясида ҳам ниҳоятда ибратлидир. Ушбу асарнинг асосий мазмунини тарбия воситалари, шакллари ва шу қабилар ташкил этади.

Камолот ва унинг тарбияси ҳақидаги муаммони Форобий куйидагича очиб беради:

«Камолот – бу яратган Аллоҳнинг борлигини онгли равишда сезиш ва ундан воқиф бўлиш»;

«Камолотга элгувчи йўл – гўзал фазилатли ва хайрли (яъни) ишларни ички хоҳиш ва истак билан такрорлаш, уларга мунтазам амал қилиш»;

«Камолат натижаси – абадийликка эга бўлиш». [1; 68].  
Турли ёш ва ҳар хил жинсдаги бола ривожланиши, дунёқараш ахлоқий ва жисмоний камол топишига ижобий

таъсир қиладиган омил ҳамда шарт-шароитларини билиш ва улардан унумли фойдаланиш шахс камолотида муҳим асос бўлиб ҳисобланади. Тарбия тизимида, ишлаб чиқаришда билимсизлик, саводсизликни йўқотиш учун болалар руҳиятидан қариялар маънавиятигача назарий ва амалий билимларни эгаллаш давримиз талабидир. Маълумки, инсон дунёга келган давридаги оддий сезишдан бошлаб мантиқий фикр ёритишгача ўтадиган давр она учун жуда узоқ ва машаққатлидир. Янги туғилган чақалоқ дастлабки дақиқалардан бошлаб сезги органи ёрдамида агроф муҳитни ақс эттиришга киришади. Унинг тафаккури бир неча ойлар хагто йиллар давомида вужудга келади, нутқ ва тафаккур биринчи мазкур ривожланишни амалга оширади. Нутқнинг ривожига бола шахснинг ривожини тезлаштиради. Шахслараро муносабатларни юқори даражага кўтаради.

Абу Али Ибн Сино (980–1037) эса тарбия жараёни инсон ҳаётида бир неча босқичларга бўлиб олиб борилиши лозимлигини уқтиради. Биринчи босқич – гўдақлик даври (7 ёшгача) бўлиб, унда бола тиббий-гигиеник талаблар асосида тарбияланади. Бунда болани ўз вақтида овқатлантириш, чўмилтириш, ухлатиш қабилар муҳим ўрин тутади. Иккинчи босқич ўсмирлик даври (16 ёшгача) бўлиб, унда бола шахси ақл ва ахлоқ жиҳатдан шакллантирилади. «Бола хулқини муътадил шакллантиришда икки манфаат бор. Биринчиси – боланинг ўзи учун бўлиб, у ёшлиқдан яхши хулқли бўлиб ўсади ва кейинчалик бу унга малака бўлиб қолади. Иккинчи – боланинг бадани учундир. Чунки, ёмон хулқ боланинг миждози бузилишига олиб келади.» Учинчи босқич – катта ёшлик даври (умрининг охиригача) бўлиб, унда инсон «Ҳифзи саломат», яъни соғлом турмуш кечиришга кўниктириб борилади. «Ҳифзи саломат» тушунчаси моддий (жисмоний) ва маънавий маънога эга бўлиб, тартибли яшаш омилларига таянади» [2; 74].

Демак, шахс тарбияси жараёни ижтимоий муаммо бўлиб, уни ечими эса ҳар бир инсон ўша жамиятнинг тўлақонли фаол аъзоси бўлиши билан белгиланади. Зеро, ҳар қандай жамият тараққиёти, инсон келажагининг истиқболи, аяни таълим-тарбия масаласига бориб тақалиши ҳақиқат. Шу нуқтаи назардан, бугун юртимиз таълим тизимида амалга



оширилган ислохотларнинг мақсади долзарб аҳамият касб этишини кўрамиз.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. — Тошкент. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. — 148 б.
2. Абу Али ибн Сино. Шейрлар ва тиббий дoston. — Тошкент, 1981. — 141 б.

## **BOLALARNING DEVIATSIYAGA MOYILLIGINI TASHXISLASH USULLARI**

*Magistr Sobirova N. Z  
Ilmiy rahbar: prof. G'afforova T.*

Barchamizga ma'lumki, kelajak avlod haqida qayg'urish, jismoniy va ma'naviy sog'lom avlodni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdan biridir. Xuddi shunday har bir o'zbek oilasi oldida turgan muhim vazifa ham mana shu hisoblanadi. Ota-ona farzand ko'rish va uni tarbiyalash orzusi bilan yashar ekan, uning kelajakda yetuk inson, komil shaxs bo'lishini istaydi. Bu masala har bir pedagog, ta'lim muassasining ham jamiyat oldidagi burchi bo'lib, ota-ona kabi ustozlar ham shogirdlarini yetuklik sari davat etadi. Demak, oqil farzand nafaqat ota-ona, balki ustoz, qolaversa jamiyatning, yurtning baxtu-iqbolidir.

Ba'zan esa ne' umidlar bilan tarbiyalayotgan bolalar o'rtasida tarbiyasi og'ir, deviant xulqqa moyil bolalar ham uchrab turadi. Ularning deviatziyaga moyilligini aniqlashda tashxis qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Tashxis so'zi arabcha so'zdan olingan bo'lib, belgilanish, ko'rsatilish, ko'rinish, kasallikni aniqlash, diagnoz [1; 25] - degan ma'noni anglatadi. Tashxis - bu o'rganilayotgan bolaning shaxsiy-ruhiy xususiyatlarini o'rganishning yakuni hisoblanadi. Bunda aniq tashxis qo'yish ahamiyatli hisoblanadi, chunki aynan shu xulosa shaxsning ruhiy holatini, tarbiyalanganlik darajasi, qiziqish va intellektini hamda boladagi deviatziyaga moyillik holatini baholashga imkon yaratadi.

Pedagogik tashxis-bu bolalarning oilada, ta'lim muassasalarida, to'garaklarda, sport mashg'ulotlarida va boshqalarda

shakllangan ijtimoiy pedagogik-psixologik xususiyatlarini to'g'ri baholashdir. Keyingi yillarda AQSH, Olmoniya, Fransiya, Rossiya, Yaponiya kabi davlatlarda tashxis qo'yish uslublari bilan mutaxassislar izchil faoliyat olib bormoqdalar.

Biz tadqiq etayotgan muammo doirasida tashxis qo'yish uchun quyidagilarga e'tibor qaratishni tavsiya etamiz:

- bola yashayotgan muhit va turmush tarziga,
  - uning atrofdagilar bilan munosabatiga;
  - qiziqishi, o'qishi va kelgusi hayotiga bo'lgan munosabati.
- Tashxischi dastlab nafaqat deviant xulqli bolani aniqlashi, balki, deviatziyani kelib chiqish sabablarini ham o'rganishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki uning sababini aniqlamasdan turib, muammoni tartar etish mumkin emas.

Bu jarayonda bevosita bola faoliyati va kishilar bilan munosabatini kuzatish, u bilan do'stona suhbatlashish, maxsus testlar to'plamidan foydalanish masadga muvofiqdir.

Pedagogik tashxislashning eng samarali metodi - bu pedagogik kuzatishdir. Bolaning xulq-atvori ko'pincha uning faoliyatini kuzatish natijasida namoyon bo'ladi. Bunda tashxischi bolaning jamoada o'zini tutishi: ota-onasi, o'rtog'lar va do'stlari, ustozlari va boshqalarga bo'lgan munosabati, muomalasi, tashqi ko'rinishi: kiyinishi, soch turmagi va boshqalarni ham kuzatilishi lozim.

Demak, kuzatishning ahamiyati shundaki, bunda deviant xulqli bolaga pedagogik ta'sir ko'rsatish yo'llari aniqlab olinadi, shu bilan shu yoshdagi bolalarga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari oydinlashtirib olinadi. Ba'zan bir faoliyat jarayonida olib borilgan kuzatish aniq ma'lumotlarni bermaydi. Shu boisdan tashxisni aniq qo'yish uchun keng qamrovli kuzatishni olib borish lozim. Masalan, bolani faqat o'qish jarayonida emas, boshqa faoliyatda ham kuzatish kerak. Biz olib borayotgan tashxis uchun ham ikkala kuzatish ham muhim hisoblanadi. Tashxis natijasida shuni aytish lozimki, ayrim bolalarning atrofdagilarga qo'pol munosabati yoki jamoat joylarida o'zini tuta bilmasligi, ochiq-sochiq kiyinishi, sochlarini turli ranglarga bo'yab olishi uning xulq-atvorida jiddiy muammolar borligidan ya'ni deviatziyaga moyilligidan dalolat beradi. Bunday bolalarda ko'pincha ommaviy



24	Раимбердиев А. Нуруллаева Ш.	Шахсни интеллектуал ривожлан- тириш — ижтимоий-педагогик муаммо сифатида	73
25	Sobirova N. Z G'ufforova T.	Bolalarning deviatziyaga moyilligini tashxislash usullari	76
26	O'sarova M.	O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida konfliktlarning kelib chiqish sabablari	79
27	Xo'jayarova N.	Sharq mutafakkirlari asarlarida farzandlarga ota-ona munosabatlarining yoritilishi	81
28	Erkinov M. Ismoilov N.	Sportchi temperamentining faoliyat natijasiga ta'siri	83
29	Avulova D. Mavlonov Y.	XVI asr харбий соҳаси тарихидан( Бухоро хонлиги мисолида)	86
30	Жамолов Д.	Бола тарбиясида оила ва жамоанинг ўрни	89
31	Маматова М.Б.	«ЧА ЦЗИН» — первый трактат о чае	94
32	Нурманова З.Н.	Жанубий Ўзбекистон шаҳарла- ри ўрта асрлар мисолида	97
33	Саидов Ф.	Марказий Осиё минтақасида тинчлик ва хавфсизликни таъмин- лашда Ўзбекистон республика- сининг ўрни ва роли	101
34	Samadova F., Eshmurodova G.	Ta'lim jaraonini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini o'shiritish	105
35	Холиқов Ф., Муминова Г.	Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг хорижий мамлакатлар билан соғлиқни сақлаш соҳасидаги ҳамкорлиги	106
36	Voboynova Sh. Mengliyev B.	Ilmiy maftda so'z tartibi	109
37	Jo'rayeva M., Mo'minova S.	Abdulla Qodiriy she'rilarida millat qayg'usi	112

38	Махматмуродова N. Bahriiddinova B.	O'zbek tili shunosligida birlikma va unga doir dolzarb masalalar	114
39	Султонова Н.	Йсажон Султоннинг романнавиствлик маҳорати	117
40	Ортиқова Э. Жабборов Э.	Қодир бахши дostonларида қўлланган ономастик бирликларнинг структураси	121
41	Раҳматова З.Ҳ.	Мақтабгача ёшдаги болалар нутқини ўстиришнинг лингвистик асослари	125
42	Ro'ziyeva D.	Adabiyotshunos olimning adabiy ijod yo'li	128
43	Рузиева Д.	Иқбол Мирзо ижодида метафора	130
44	Сатторзода Х. Имомова Г.	Чингиз Айтматовнинг "Тоғлар қулаётган замон (абдий қаллик) романидаги бош гоа	133
45	Султонова Н.	"Генетик" романи бадиияти	137
46	Hasanova G. Yuldosheva N.	Peshlavhalarda nolisoniy vositalarning o'rti	141
47	Cho'liyeva N.	Nazar Eshonqul ijodida ramz	145
48	Шодиева С.	Қори Раҳматулло Вozex хаёти ва илмий мероси	148
49	Бердиевova M.Х	Нутқни ривожлантиришда тилнинг ахамияти	153
50	Ismoilova M.	Curtailed words in press vocabulary	156
51	Chariyeva D.A. Shukurova Z.SH	Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy usullari	158
52	Чориева Зебо Шукурова З.Ш.	Сифат сўз туркумига оид субстантивация ходисаси	160



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI  
OLIIY VA URTA MAHSUS TA'ILIM  
VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

## ILM-FAN VA INNOVATSIYA

Ilmий-amaliy konferentsiya  
materiallari

Qarshi  
“Qarshi davlat universiteti” nashriyati  
2019